

## O'ZBEK TILI(TA'LIM O'ZGA TILDA)

1. Nuqtalar o'rnilida **a** harfi yoziladigan so'zni aniqlang.

- A) *insho...t*    B) *kamol...t*    C) *mukof...t*  
D) *muom...la*

2. Qaysi javobdag'i har ikkala so'zda bir xil harf tushib qolgan?

- A) *tush...nmoq, ul...g'vor*  
B) *ma...tamoq, i...tiyor qilmoq*  
C) *ijo...kor, shikas...lanmoq*  
D) *gan...korlik, i...timoiy*

3. Qaysi gapda imloviy xato mavjud?

- A) *Manmanlik, yolg'onchilik, hasadgo'ylik insonni obro'sizlantiradi.*  
B) *Xalqimizga xos urf-odat va ananalar, avvalambor, mahalla muhitida shakllanadi.*  
C) *Mehmondo'st o'zbek xalqi hamisha millatlararo totuvlikni ulug'laydi.*  
D) *Har bir o'g'il-qiz buva-buvisi, ota-onasining nasihatlariga doimo amal qilishi kerak.*

4. Qaysi gapda vergul tinish belgisi xato qo'llangan?

- A) *O'g'lim, sen hamisha ojizlarga ko'maklashishga, ularni qo'llab-quvvatlashga harakat qilgin.*  
B) *Ko'rgazmada o'zbeklarning milliy liboslari, hamda milliy taomlari namoyish etildi.*  
C) *Inson kelajakka intilib yashashi lozim, ammo o'tmishini ham unutmasligi kerak.*  
D) *Biz, O'zbekiston yoshlari, Vatan ravnaqi uchun xizmat qilishga hamisha tayyormiz!*

5. Qaysi javobda o'zaro zid ma'noli so'zlar berilmagan?

- A) *mushkul – oson*    B) *tekis – sekin*  
C) *ziqna – saxiy*    D) *mehr – nafrat*

6. Tasviriy ifodalar va ularning mazmuniga mos keluvchi so'zlar to'g'ri moslashtirilgan javobni aniqlang.

1	yaylov bahodiri	a	sher
2	bahor elchisi	b	bo'ri
3	o'rmon podshosi	c	archa
4	o'rmon malikasi	d	cho'pon
		e	boychechak
		f	tovus

- A) 1-d, 2-e, 3-a, 4-c    B) 1-b, 2-e, 3-c, 4-f  
C) 1-b, 2-c, 3-a, 4-f    D) 1-d, 2-c, 3-b, 4-c

7. Qaysi javobda **ichi qora** iborasi bilan antonimlik hosil qila oladigan ibora keltirilgan?

- A) *og'zi oziq*    B) *ko'ng'li ochiq*  
C) *og'zi qulog'ida*    D) *ko'ngli to'q*

8. Qaysi gapda har ikkala o'rinda **-li** qo'shimchasini qo'llash mumkin?

- A) *Anvar aql..., tirishqoq juda harakat... bola.*  
B) *Vazmin va chirov... gapiradigan bu shahar... kishi ustozimiz edi.*  
C) *Yo'lning ikki tomoniga hosil... meva... daraxtlar ekilgan.*  
D) *Bilib qo'y, reja... ish hamisha samara... bo'ladi.*

9. Qaysi gapda tartib son mavjud?

- A) *Siz shu o'nta kitobni javonga tartib bilan joylashtiring.*  
B) *Avval xonaga uchalangiz tartib bilan kiring, keyin voqeani tushuntiring.*  
C) *U kelganida endi ikkinchi hikoyani o'qiy boshlagan edim.*  
D) *Xonaga avval yigitlar, keyin qizlar birin-ketin kirib kela boshlashdi.*

10. Qaysi gapda **-choq** qo'shimchasi narsa otini yasash uchun xizmat qilgan?
- A) U kamning o'yinchoqlari har tomonga sochilib ketgan edi.  
 B) Toychoq bir kishnab qo'ydi-da, onasining ortidan chopqillab ketdi.  
 C) Qo'rkoq kishilar ko'pincha maqtanchoq ham bo'lishadi.  
 D) Oyim o'choq boshida qandaydir ish bilan band.

11. Nuqtalar o'rnida qaysi harf tushirib qoldirilgan?  
*Yillar mobaynida "Ikki eshik orasi" romani o'zbek kitobxonlari tomonidan sevib o'qi...di.*  
 A) l    B) sh    C) y    D) t

12. Gaplar va ulardagi ko'p nuqta o'rnida qo'yilishi lozim bo'lgan so'zlar mos ravishda to'g'ri berilgan javobni aniqlang.

1	Kishi odobi uning o'zgalar bilan munosabatida ...adi.
2	Kishilarni o'zgalar nazdida xushro'y ...adigan uning qalb go'zalligidir.
3	Kishilar hamisha ruhiyatida biron bir illat ...digan do'stga ehtiyoj sezadi.

  

a	ko'r
b	ko'rish
c	ko'rmay
d	ko'rin
e	ko'rsat
f	ko'rinnmay

- A) 1-e, 2-d, 3-b    B) 1-d, 2-a, 3-c  
 C) 1-e, 2-b, 3-c    D) 1-d, 2-e, 3-f

13. Qaysi gapdagi ajratib ko'rsatilgan so'z ishonch munosabatini ifodalash uchun xizmat qilgan?

- A) **Xususan**, men ham bu dargohda o'n bir yil tahsil olganman, mana shu ustozlarning ishonchini qozonganman.  
 B) **Aksincha**, musobaqa tashkillashtirilsa, o'quvchilar yana ham ko'p kitob o'qishga intiladilar.  
 C) O'zbeklar Navro'z bayramidan oldin, **albatta**, umumxalq hashari o'tkazishadi.  
 D) Menga bildirgan ishonchingizni, **balki**, oqlay olmasman, ammo uddalashga harakat qilaman.

14. Qaysi gapdagi **-da** qo'shimchasining o'rnida **orqali** yordamchi so'zini qo'llash mumkin?

- A) Avtobus**da** uzoq shahardan kelayotgan bir necha yo'lovchi bor edi.  
 B) Tabiat**da** inson ko'zi bilan ko'rib bo'lmaydigan jismlar ham bor.  
 C) Murabbiyim bilan telefon**da** suhbatlashgan edim.  
 D) Shoir qo'lidagi qalam**da** uning asl kechinmalari ham jo bo'lgan.

15. Jadvalda berilgan so'zlar yordamida so'z birikmasi hosil qilingan javobni belgilang. Diqqat! Hokim so'zlardan ikkitasi ortiqcha.

tobe so'z	hokim so'z
1. o'zini	a) keyin
2. o'zidan	b) uyi
3. o'z	c) tanishtirmoq
4. o'zi haqida	d) faxrlanmoq
	e) o'qituvchi
	f) ma'lumot bermoq

- A) 1-f, 2-c, 3-e, 4-d    B) 1-b, 2-a, 3-d, 4-c  
 C) 1-e, 2-b, 3-f, 4-b    D) 1-c, 2-d, 3-b, 4-f

16. Qaysi gapda ajratilgan bo'lak mavjud?

- A) O'g'lim, yana bir bor o'ylab ko'r, balki shu sohada ishlab ko'rarsan?  
 B) Matematika, fizika, biologiya – hammasi bola tafakkurini o'stirishga xizmat qiladi.  
 C) Afsus, biz kutgan natijaga erisha olmadik, astoydil harakat qilgan edik.  
 D) Biz shu atrofdan, qishloqqa yaqin joydan, boshpana topdik.

17. Quyida berilgan gap haqidagi **noto'g'ri** hukmni toping.

Bu kitobni kutubxonadan o'qigani olib kelgan edim, ammo ulgurmaganim uchun o'z vaqtida olib borib bera olmadim.

- A) Ish-harakatning sababini anglatgan bo'lak mavjud.  
 B) Ish-harakatning daraja-miqdorini anglatgan bo'lak mavjud.  
 C) Ish-harakatning paytini anglatgan bo'lak mavjud.  
 D) Ish-harakatning maqsadini anglatgan bo'lak mavjud.

18. *Yozgi ta’til boshlanmasdan men qishloqdagi*

*buvimlarnikiga ketdim.*

Ushbu sodda gap mazmuniga mos ravishda  
grammatik jihatdan to‘g‘ri shakllantirilgan  
qo‘shma gapni aniqlang.

- A) *Yozgi ta’til boshlansa, men qishloqdagi*  
*buvimlarnikiga ketaman.*
- B) *Yozgi ta’til boshlanmadi, ammo men*  
*qishloqdagi buvimlarnikiga ketdim.*
- C) *Yozgi ta’til boshlandi va men qishloqdagi*  
*buvimlarnikiga ketdim.*
- D) *Yozgi ta’til boshlanmasa, men qishloqdagi*  
*buvimlarnikiga keta olmayman.*

**Matnni o'qing va ushbu matn asosida shakllantirilgan quyidagi to'rtta topshiriqni bajaring.**

- (1) *Birinchi kishi*: Assalomu alaykum, kechirasiz sizning joyingiz qayerda?
- (2) *Ikkinchchi kishi*: Vaalaykum assalom. Mening joyim chap qatorda oynaning yonida, sizniki-chi? Sizning joyingiz qayerda?
- (3) *Birinchi kishi*: Marhamat joyingizga o'tiring, joyim sizning yoningizda ekan. Qanday yaxshi siz bilan yonma-yon o'tirar ekanman. Juda soz!
- (4) *Ikkinchchi kishi*: Rahmat, men ham siz bilan ketayotganidan mammunman!
- (5) *Birinchi kishi*: Mening ismim – Anvar.
- (6) *Ikkinchchi kishi*: Tanishganidan xursandman. Men Sobirjonman. Donishmandlar: "Odam bolasining orzu va murodga erishmog'i faqat, xushmuomalalik **soyasida** hosil bo'ladi", – deyishgan. Siz juda xushmuomala inson ekansiz.
- (7) *Birinchi kishi*: Luqmoni Hakim qo'shnilarini izzat va hurmat qilmaydigan, ularning dillarini og'ritadigan odamdan hamma nafratlanishini u odam o'z obro'sini yo'qtoshini aytadi.
- (8) *Ikkinchchi kishi*: Ha, **ular to'g'ri aytganlar**. Aeroport yanada qulay. Uzoq safarga chiqqanda samolyot qulay-da, baribir.
- (9) *Birinchi kishi*: **E, nimasini aytasiz**, yo'lovchilar uchun ham ma shart-sharoitlar yaratilgan. Bugungi kunda O'zbekiston havo yo'llari kemalari to'rtta qit'axing 50 dan ziyod aeroportiga parvoz qilmoqda.
- (10) *Ikkinchchi kishi*: To'g'ri aytasiz. Safarimiz bextara bo'sir. Oq yo'l, yaxshi yetib olaylik.

**19.** Ushbu matndagi suhbatdoshlar haqida berilgan to'g'ri fikrni aniqlang.

- A) Qadrdon do'stlar hikmatlar haqida suhbatlashdilar.
- B) Ikki yo'lovchi safarda hamroh bo'lib qoldilar.
- C) Samolyotda ikki hamkasb tasodifan uchrashib qoldi.
- D) Aeroport xodimlari faoliyatları xususida gaplashdilar.

**20.** Matnning 6-gapidagi **soyasida** so'zini quyidagi qaysi so'z bilan almashtirib qo'llash mumkin?

- A) xususida
- B) orqasiga
- C) ko'lankasida
- D) tufayli

**21.** Matnning 8-gapida ajratib ko'rsatilgan "**ular to'g'ri aytganlar**" jumlasining mazmuni qaysi javobda to'g'ri izohlangan?

- A) Sobirjon donishmand kishining xushmuomala bo'lмаган insonlar o'zlariga ham ziyon qilishi haqidagi fikrini ma'qulladi.
- B) Sobirjon boshqa yo'lovchilarning aeroportning qulayligi, samolyotning yaxshiligi haqidagi fikrlarini tasdiqladi.
- C) Sobirjon Anvarjonning safarga chiqqanda qulay transport vositasida ketish yaxshi ekanligi haqidagi fikrlarini ma'qulladi.
- D) Anvar donishmandlarning safarga chiqqanda yaxshi yo'ldosh va qulay sharoit bo'lishi kerakligi haqidagi fikrlarini dalil sifatida keltirdi.

**22.** Matnning 9-gapida ajratib ko'rsatilgan "**E, nimasini aytasiz**" kiritmasi qanday mazmun-munosabatni ifodalagan?

- A) ajablanish, hayratlanish
- B) xulosalash, ranjish
- C) mammunlik, tasdiqlash
- D) afsuslanish, inkor qilish

**Abdulla Oripovning "Tilla baliqcha" she'rini o'qing va quyidagi to'rtta topshiriqni bajaring.**

- (1) Tuxumdan chiqdi-yu, keltirib uni  
Shu loyqa hovuzga tomon otdilar.  
(2) Tashlandiq ushoq yeb o'tadi kuni,  
Xor-u xas, **xazon**lar ustin yopdilar.  
(3) Dunyoda ko'rgani shu tor hovuzcha  
Va gavjum tollarning achchiq xazoni.  
(4) Menga alam qilar, tilla baliqcha  
Bir ko'lmaq hovuz deb bilar dunyon!

**23.** Ushbu she'rning umumiylar mazmuni haqidada berilgan to'g'ri ta'rifni aniqlang.

- A) She'rda shoир Ona Vatanga bo'lgan muhabbatni kuylagan.  
B) She'rda shoир tabiat go'zalliklarini tarannum etgan.  
C) She'rda shoир ishq va muhabbat haqidada kuylagan.  
D) She'rda shoир inson va hayot haqidagi o'ylarini bayon qilgan.

**24.** She'rning 2 raqami bilan ajratib ko'rsatilgan qismidagi **xazon** so'zi qanday ma'noda qo'llangan?

- A) kuz    B) daraxt    C) barg    D) o't

**25.** Shoир tilla baliqcha deya kimlarni nazarda tutgan?

- A) hayotdagagi o'zining munosib o'rnini anglay olmagan insonlarni  
B) do'stлari tomonidan xiyonatga uchragan iste'dod egalarini  
C) yovuz kimsalardan zulm ko'rib halok bo'lgan qahramonlarni  
D) boy-badavlat bo'lsa-da, o'zini bechorahol tutadigan kimsalarni

**26.** She'rning 4 raqami bilan ajratib ko'rsatilgan misralari mazmuni haqidagi to'g'ri izohni aniqlang.

- A) Shoир barcha tilla baliqchalar aslida ko'lmaq hovuzchalarda yashashini aytadi.  
B) Shoир aslida bir ko'lmaq hovuz bo'lgan dunyoga intilmaslik lozimligini uqtiradi.  
C) Shoир insonlarni hamisha yuksaklikka intilib yashashga, taraqqiy etishga undaydi.  
D) Shoир odamlar aslida bu dunyoning o'zi bir ko'lmaq hovuz ekanligini bilmasligidan afsuslanadi.

**Matnni o'qing va ushbu matn asosida shakllantirilgan quyidagi to'rtta topshiriqni bajaring.**

**SHER BILAN DURROJ**  
(hikoyatning qisqartirilgan nasriy bayoni)

(1) To'qayda bir yirtqich sher bor edi. U har safar bolalaganda xursand bo'lar, biroq chumolilar uning bolasini talab o'ldirishardi. Shuning uchun u farzandini og'zida tishlab asrar edi. O'sha to'qayda bir durroj\* ham bo'lib, bu yirtqich sherning vahmidan doim qo'rquvda edi. Bolasini og'zida tishlab olib yuradigan sher durroj pisib yotgan bo'talar\* yoniga borib qolsa, bu pir etib uchar, sher qo'rqqanidan seskanib ketar, bolasiga ham tishi botib ketardi. Natijada sher tishi bilan o'z bolasini yarador qildi.

(2) Sher durroj bilan do'stlashish yo'lini qidira boshladi. U durrojga dushmanlaridan himoya qilish va sadoqatli bo'lishni va'da qilib, u bilan do'stlashdi. Bir kuni durroj: "Dod, meni ovchi tuzog'iga tushirdi", – deb qichqirdi. Sher kelib ko'rsaki, durroj ovchining tuzog'iga tushmagan ekan. Sher juda ranjidi. Bu hol bir necha bor takrorlandi.

Bir kuni durroj ovchining tuzog'iga tushib qoldi. U dod solib sherni yordamga chaqirdi, ammo qancha qichqirmas, sher qutqarish uchun iltifot ko'rsatmadni. Durroj esa halok bo'ldi.

*durroj\* – qirg'ovul, kabutar*

*bo'ta\* – daraxt*

**27.** Hikoyatning 1-qismida sher bolalari kim (nima) sababli halok bo'lishi bayon qilingan?

- A) chumolilar sababli
- B) durroj sababli
- C) yirtqich qushlar sababli
- D) bo'talar sababli

**28.** Sherning durroj bilan do'stlashishining sababi nima edi?

- A) bolalarini talab o'ldirayotgan chumolilardan qasd olish uchun
- B) og'zida olib yurgan bolalariga ziyon yetkazib qo'ymaslik uchun
- C) bolalarini tarbiyalashda durrojning nasihatlariga ehtiyoji borligi uchun
- D) kuch va qudratda tengsiz durrojdan qo'rqqanligi uchun

**29.** Hikoyatning 2-qismida sherning nimadan ranjiganligi aytilgan?

- A) durrojning yolg'onchiligidan
- B) do'stiga ovchi xavf solganidan
- C) durrojning tuzoqqa tushib qolganidan
- D) durroj tuzoqqa tushmaganidan

**30.** Durroj obraziga to'g'ri ta'rif berilgan javobni aniqlang.

- A) hiylakor va aqlli
- B) ishonuvchan va sodda
- C) qo'rkoq va yolg'onchi
- D) sadoqatli va mard